



XALQ HUNARMANDCHILIGINI YOSHLAR O'RTASIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI

G'ulomova Anora Kabirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
kobiljonirisov@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869825>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

KEY WORDS

Hunarmandchilik, professirlar, kadrlar, badiiy. estetik, ma'daniyatini o'stiradi, takomillashtirish, dekorativ, investitsiyalarni faol jalb qilish, eksport siyosatini oshirish, modellashtirishdan iborat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada milliy hunarmandchilikning amaliy sa'nati ma'naviy olamini boyitadi, badiiyi estetik qobilyatlarini shakillantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi hamda hunarmandchilikni rivojlanishiga muhim asoslardan biri bo'la oladi.

Xalq hunarmandchilik fanining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini o'z kasbining ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy, madaniy tariximizni chuqur o'rgatish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analарimiz, xalq hunarmandchilikni tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirishga muhim omillardan biri bo'laoladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha qator tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda, ma'lumki ichki va tashqiy bozorlarda mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta'minlash shuningdek, aholini yuqori sifatli hunarmandchilikka bo'lgan talabini oshirishga zamin yaratadi.

Prezidentimiz Shavkat Muziyoyev tomonlaridan joriy yilning 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5721 sonli farmoni qabul qilindi. Maskur farmon ijrosi doirasida, mamlakatimizda mahalliy hunarmandchilik tarmog'ini tiklash va rivojlantirish shuningdek ishlab chiqarishlarni kengaytirishiga zamin yaratadi. Xalqimizning boy madaniy va tarixiy an'analari to'liq saqlab qolish, milliy hunarmandchilikni xalq badiiy va amaliy sa'natlarini yanada rivojlantirishimiz, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosida aholi, ayniqsa yoshlar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev farmonlari e'lon qilingan.

Qadimshunos va tarixiy olimlarimizning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki, zaminimizda qadimdan turli amaliy hunarmandchiligini markazlari vujudga kelgan va asrlar mobaynida shakillanib kelinmoqda.

Asosiy qism

Hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko'zlangan asosiy maqsad, bugungi kunda aholi xususan yoshlar bandligini taminlash orqali oilaviy faravonlikni oshirish, muhim yo'nalishlari sifatida o'zini namoyon etadi. Hunarmandchilik sohasining yoshlar o'rtasida psixologik va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, yoshlarimizni sabr-bardoshli, bo'lishini taminlaydi. Bundan tashqari hunarmandchilik sohasida yoshlarni yetuk kadrlar qilib tayyorlash mumkunligini anglab yetishimiz zarur. Shu jumladan mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni har tomonlama rivojlantirishimiz va hunarmandlarni qo'llab quvvatlash boyicha islohatlar jadal suratlarda rivojlanmoqda. Milliy hunarmandchiligimiz o'zbek xalqining asrlar davomida o'z qadr qimmatini yo'qotmay hozirgi kungacha qo'li gul hunarmandlar tomonidan shug'illanib kelayotgan sohadir.

Hunarmandchilik tobora takomillasha borib turli ixtisosliklarga ajralib turgan. Masalan, kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskorlik, binokorlik, uymakorlik, kashtachilik, zargarlik, zardoqlik va boshqalarini ko'rsatishimiz mumkin.

Albatta, qadimdan xalqimizning buyuk tarixiy, buyuk jahon xalqlari amaliy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga bu xalq ijodiga mansub bo'lgan merosiy san'atini e'zozlab kelmoqda. Bizning hunarmandchiligimiz asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ham madaniy ham ma'naviy merosimiz bo'lib kelmoqda.

Xalq amaliy san'ati necha yillik tarixni o'z ichiga oladi, bugungi kunga kelib hunarmandchiligimiz, milliy qadryatlarimiz o'z ahamiyatining yanada rivojlantirish bo'yicha hozirda qo'li gul ustalarimiz tomonidan yanada rivoj topgan turlardan bir qancha joylarda va qadim zamonlardan buyon boy an'analarga ega bo'lgan zargarlik san'atidir. Qadimiy zargarlik bezatilgan bezaklari kiyim kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zebuziynatlaridan biri bo'lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy birlashgan rangi, shakli va vazifasi bilan hamohang bo'lgan.

Xalqning dekorativ amaliy san'atiga bo'lgan qiziqishning tobora ortib borayotganligini uning tarixiy madaniyati roli doston va musiqa raqsda bo'lgani kabi xalq harakterining eng teran xususiyatlari, estetik qarashlari, didi, dunyoqarashi va talantni o'zida namoyon qilishi bilan belgilanadi,

Xalq hunarmandchiligida ustozlarning o'ziga yarasha shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o'z me'zoni bo'lgan. Shu me'zon asosida ustaga ijobiy va salbiy baho berganlar. Shuning uchun ota farzandini yakka shogirtlikka berishda ustozining yuqoridagi me'zonga javob bera olishi darajasini o'rganib chiqan. Mamlakatimizda muzey larni tashkil topishi ham o'zbek xalq madaniyati rivojlanishida muhim bosqich bo'lgan. Muzeylarda xalqimizning hunarmandchilik buyumlaring to'plashi, saqlashi, o'rganishi va tadqiqot ishlarini olib boorish asosiy vazifa hisoblanadi. Hunarmandlarimizning o'z hunariga bo'lgan hurmat e'tibori tufayli biz qadryatlarimizni saqlab qolishga erishdik. Ma'lum ma'noda biz bu qadryatlarni namoyish qilish, chet ellik shu soha ixlosmandlarini jalb eta oladilar. Yurtimizga kelayotgan minglab mehmonlar tarixiy obidalarimiz bilan bir qator, o'zbek milliy hunarmanchiligi mahsulotlarini ko'rib ularni yaratilish jarayonini zavq bilan tomosha qilishi qiziqishlarini ortirish hamda milliligimizdi sezdirishimiz tufayli o'z kasbini saqlab hozirgi kunda shu kasbi bilan elga tanilgan ustalar yetishib chiqmoqda. O'zbek xalqining azaliy qadiryatlari tizimida farzand tarbiyasi, ayniqsa, uni kasb-u hunar egasi qilib mustaqil hayotga tayyorlash masalalasi halq pedagogikasining eng muhim vazifalaridan sanalgan. Mana shu vazifani amalga oshirish

usullaridan biri –milliy hunarmandchilikni rivozlantirish, uni yosh avlodga o'rgatish sanalgan. Shunga ko'ra; xalq hunarmandchiligini yashlar o'rtasida keng isloh qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik sharq xalqlarining qadimiy qadryati bo'lib u asrlar davomida ma'naviyati, urf-odatlar, orzu-intilishlari o'zida ifodalab kelayotgan san'at hisoblanadi. Uning o'ziga xos milliylik xususiyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari usta-shogirt an'alarini o'rtasidagi axloq-odob me'zoni, madaniyati, yosh avlodga hunarmandchilik kasbiga mexr-muhabbatini o'stirishga muhim rol o'ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Xalq hunarmandchiligi darslik Toshkent 2021 - yil
2. Texnologiya va dizayn B. Qurbonov. G. Kurbonova
3. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashshuv. S. Bekmurodova

